

Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi muhokamaga qo'yildi

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali regulation.gov.uzga "Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi joylashtirildi.

Mazkur konsepsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4794-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyihaning to'liq matni: <https://regulation.gov.uz/uz/d/32166>

Loyiha muhokamasida faol ishtirok eting!